

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUN, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMİY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-184-1**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 13-iyun

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-184-1**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### BIOLOGIYA FANLARI

*Salimova Hilola*

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida) ..... 5-10

### IQTISODIYOT FANLARI

*Kadirova Shaxnoza*

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH ..... 11-14

### YURIDIK FANLARI

*Rahmonov Abbos*

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI ..... 15-18

*Ernazarova Feruza*

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI ..... 19-22

*Donayeva Aziza*

"ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'iy INTELLEKTNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH" ..... 23-29

*Sobirov Temur*

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR, TA'RIFLAR VA O'ZBEKISTONDAGI AMALIYOT ..... 30-34

*Тогаймуродова Камола*

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК ..... 35-38

*Бобоева Муслима*

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ ..... 39-42

*Tuymayev Asadbek*

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJY QONUNCHILIK ..... 43-46

*Nizomova Khosiyatkhon*

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW ..... 47-49

*Qadamov Javohirbek*

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMoya QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI ..... 50-55

*Ergashova Mamura*

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI ..... 56-60

*Isaqulova Elmira*

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI ..... 61-66

<i>Амирова Умидা</i>	
ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ .....	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i>	
XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR .....	71-74
<i>Fayziyev Xayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i>	
МЕХНАТ МУНОСАБАТЛАРИДА ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY АНАМИЯТИ .....	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i>	
ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ .....	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i>	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПЛАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ .....	84-87
<b>TIBBIYOT FANLARI</b>	
<i>Арипджанова Фарзона</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП) .....	88-92

## IQTISODIYOT FANLARI

# YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARING SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH

**Kadirova Shaxnoza Ilhomovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 3-kurs tayanch doktoranti,  
Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti  
Assistent-o'qituvchi  
E-mail: [shkadirova.91@gmail.com](mailto:shkadirova.91@gmail.com)  
Tel: +998 91 553 33 14  
ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-1560-2820>

**Annotatsiya.** So'nggi yillarda bizning mamalakatimizda sanoat sohasida innovatsiyalar va modernizatsiya asosida tezkor o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Innovatsion g'oyalarni mamlakat sanoat tarmoqlariga tatbiq etish barqaror iqtisodiy o'sishga erishish, raqobatbardoshlikni oshirish va mahsuldarlikni yuksaltirishda muhim omilga aylandi. Innovatsiyalarni joriy etish, ayniqsa, avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalar, "aqli" ishlab chiqarish tizimlari (Smart Industry) va sanoat 4.0 konsepsiysi asosida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, asosiy tarmoqlarda innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi institutsional qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlik masalalari ko'rib chiqiladi.. Bu esa korxonalarning iqtisodiy salohiyatini takomillashtirishga hamda ishlab chiqarish samaradorligini 25-30% ga oshirishga xizmat qilmoqda. Innovatsion yondashuvlar hamda texnologiyalarni joriy etish barqaror iqtisodiy o'sish, mahsulot sifati va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'yamoqda. Ushbu maqolada mamlakatimizning sanoat tizimida innovatsiyalarni joriy etish, amalga oshirish mexanizmlari va strategik yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, energetika, kimyo va mashinasozlik kabi tarmoqlarda ilm-fan yutuqlariga asoslangan texnologik yangilanishlar ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim o'r'in tutuvchi institutsional qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalar va xalqaro texnologik hamkorlik masalalari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, sanoat korxonalar, iqtisodiy barqarorlik, modernizatsiya, raqobatbardoshlik, texnologiya transferi.

## MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES' CAPACITY POTENTIAL IN THE CONTEXT OF GREEN ECONOMIC DEVELOPMENT

**Kadirova Shakhnoza Ilhomovna**

Samarkand State University named after Sharof Rashidov  
3<sup>rd</sup> year Ph.D candidate  
"Silk Road" International University of  
Tourism and Cultural Heritage, Assistant-teacher

**Abstract.** In recent years, rapid changes have been taking place in our country's industrial sector based on innovation and modernization. The implementation of innovative ideas into national industrial sectors has become a key factor in achieving sustainable economic growth, enhancing competitiveness, and increasing productivity. The introduction of innovations is being carried out particularly through automation, digital technologies, smart manufacturing systems (Smart Industry), and the concept of Industry 4.0. Additionally, issues related to institutional support and international cooperation, which contribute to the development of innovation in key sectors, are also being addressed. These efforts are helping to improve the economic potential of enterprises and increase production efficiency by 25-30%. Innovative approaches and the adoption of new technologies play a significant role in fostering sustainable economic growth, improving product quality, and enhancing competitiveness. This article analyzes the implementation of innovations in the country's industrial system, the mechanisms of application, and strategic approaches. In particular, technological upgrades based on scientific

advancements are planned in sectors such as energy, chemistry, and mechanical engineering. Furthermore, the article examines institutional support, foreign investment, and issues of international technological cooperation, all of which are vital for innovation development.

**Key words:** innovation, industrial enterprises, economic stability, modernization, competitiveness, technology transfer.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/usb-02>

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarda ishlab chiqarish omillarining yuqori harakatchanligi, ishlab chiqarilgan mahsulotning yuqori darajadagi ilm-fan intensivligi va kapital sig'imi, shuningdek, investitsiya resurslariga talabning ortib borishi bilan tavsiflanishi mumkin. Barcha darajadagi iqtisodiy jarayonlarni boshqarish samaradorligini ta'minlashga imkon beradigan asosiy muammolardan biri bu sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash, uni amalga oshirish va rivojlantirishning eng maqbul yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi jarayonida ayniqsa energetika, to'qimachilik, konchilik va ishlab chiqarish sohalarida innovatsiyalar muhim ahamiyat kasb etdi. Innovatsiyalarga strategik e'tibor asosan texnologiyalarni joriy etish, mutaxassislikni rivojlantirish va global iqtisodiyotga yanada chuqurroq integratsiya qilishga qaratilgan. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyotda ilmiy-texnikaviy bilimlar ta'sirida moddiy ishlab chiqarishning an'anaviy sohalarini va texnologik asoslarini tubdan o'zgartiradi, hamda ichki va tashqi bozorlarda korxonalarining raqobatbardoshlik yetakchiligini ta'minlaydi deb aytish mumkin.

Sanoat korxonalarining faoliyat samaradorligini ta'minlash uchun uning innovatsion iqtisodiyotga xizmat qiluvchi axborot-kommunikatsiya infratuzilma sohasida kadrlar tayyorlash, uni davlat tomonidan tartibga solishning tegishli shakl va usullarini yaratish hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishning milliy strategiyasi shakllantirish eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa mamlakatda jamiyatni innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltira oladigan va zamonaviy iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etadi va innovatsion salohiyatni takror ishlab chiqarish va undan foydalanish hamda belgilangan maqsadlarga eng oqilona tarzda erishishni ta'minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsion salohiyat har qanday murakkablik darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni rivojlantirish uchun miqdoriy va sifat parametrlarini belgilaydi. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish zarurati boshqaruv faoliyatining mazmuni, shakllari va usullariga yangi talablar qo'yadi. Bu ob'ektiv ravishda innovatsion salohiyatni rivojlantirishning mohiyati va tendentsiyalarini nazariy tahlil qilish, innovatsion mahsulotni bevosita ishlab chiqarish, hamda transformatsiyalar tezligiga ham ijobjiy ta'sir qilishiga olib keladi [1].

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, korxona o'zining uzoq muddatli raqobatbardosh siklini o'rnatishi uchun u maksimal darajada o'zining iqtisodiy salohiyatidan foydalanib ish faoliyatini yo'lga qo'yib, raqobatchilarining salohiyatidan tezroq o'sishi kerak. Buning uchun korxona salohiyatini baholash, rejorashtirish, rivojlantirish va undan foydalanish zarurligini ifodalaydi va iqtisodiy salohiyat boshqaruv kontseptsiyasini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarning salohiyat imkoniyatlarini boshqarish bu biznes natijalarini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash muammolari dolzarb masalalardan biri bo'lib qoldi. Bundan assosiy maqsad va amaliy vazifa bu sanoat korxonalarining strategik vaziyatida "boshqaruv"(menejment) iqtisodiy barqarorligining asosi va iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu oqilonma maqsad va vazifalarga erishish uchun menejment mavhum tushunchalar bilan emas, balki sanoat korxonalarning iqtisodiy salohiyatini va uning dinamikasini adekvat baholaydigan aniq ko'rsatkichlarini talab qiladi. Faqat bu holatda korxonaning me'yoriy parametrlarini loyihalash, uning yakuniy ko'rsatkichlarini rejalashtirish, ichki resurslar va bo'linmalarni tuzish, xodimlarni rag'batlantirish va nazorat qilish hamda aniq maqsadli rejalarini amalgalash oshirish orqali sanoat korxonaning faoliyatni tashkil etish mumkin [4].

Hozirgi vaqtda innovatsion muhit yuqori dinamiklik va kuchayib borayotgan raqobat bilan ajralib turadi, bu tizimli iqtisodiy rivojlanishining mantiqiy natijasidir. Biroq, sanoat korxonalarning iqtisodiy salohiyatini tizimli monitoring qilish uchun jahon va milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi tasodifiy davr sifatida emas, balki har bir bozor sub'ektidan, eng avvalo, yuqori sifatli strategik rivojlanishga ega bo'lishni o'zaro talab qiladigan biznes boshqaruvini amalgalash oshirish zarurligi ko'zda tutiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalariga e'tibor kuchayib borganligi sababli, iqtisodiy salohiyat toifasini ilmiy-nazariy o'rGANISHNING dolzarbligini, keyinchalik undan korxonani boshqarishda foydalanishning amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Asosiy tarmoqlar va innovatsiyalarni joriy etish:

To'qimachilik va yengil sanoat - to'qimachilik sanoati O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining muhim sohalaridan biri bo'lib, avtomatlashtirilgan uskunalar, raqamli texnologiyalari va chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish katta ahamiyatga ega[7].

Energetika sohasi - quyosh va shamol energiyasiga asoslangan qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish maqsad etib belgilangan. Energiya tejovchi texnologiyalar va aqlii tarmoqlarni joriy etish orqali resurslardan samarali foydalanishga olib keladi[2].

Konchilik va metallurgiya - konchilik sohasida innovatsion geologik tadqiqot usullari va raqamli monitoring tizimlari joriy etildi. Bu esa mahsulorlikning oshishiga va ekologik talablarning bajarilishiga xizmat qildi [8].

Kimyo sanoati - Kimyo sanoatini modernizatsiya qilishda "yashil kimyo" tamoyillarini qo'llash, kimyoviy jarayonlarni raqamli kuzatish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish ustuvor yo'naliishlardan biri hisoblanadi [6].

Institutsional va ta'limiylar qo'llab-quvvatlash - Yashnobod innovatsion texnoparki kabi innovatsion klasterlar va texnoparklarning tashkil etilishi startaplar, ilmiy-tadqiqot ishlari va universitet-sanoat hamkorligining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari texnik mutaxassislarini innovatsion fikrlash asosida tayyorlashga moslashtirilmoqda [5].

Strategik boshqaruv vositalari yordamida korxonani rivojlantirishning eng samarali strategiyasini tanlash (yoki kerak bo'lganda uni qayta ko'rib chiqish) atrof-muhit va korxonaning ichki muhiti xavfi imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish asosida ta'minlanadi.

Tashkilotning sa'y-harakatlarini uning raqobatbardoshligini ko'proq belgilaydigan korxona rivojlanishining muayyan sohalarida jamlash asosida korxonaning strategik faoliyatida samaraga erishish ta'minlanadi. Quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Sanoat zonalari va ilmiy markazlarni rivojlantirish orqali innovatsion infratuzilmani mustahkamlash;
- Ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalarni jalb etish va tartibga solish tizimini takomillashtirish;
- Xalqaro innovatsion tarmoqlarda ishtirok etish va hamkorlikni kengaytirishdan iboratdir.

#### Xulosa

Iqtisodiyotning globallashuv innovatsion mohiyati shundan iboratki, mamlakatlarning integratsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirishdan hamda jahonda yagona bozor tizimini shakllantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kompyuter va telekommunikatsiya tarmoqlari global aloqa uchun innovatsion asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan ushbu jarayon jahon iqtisodiyotining sifat jihatidan farqlanishiga hissa qo'shishini kuzatish mumkin hamda bu uning sanoat paradigmasini axborot paradigmasiga almashtirish haqida gapirishga imkon beradi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. ADB (2022). O'zbekistonning energiya sektori bo'yicha baholash, strategiya va yo'l xaritasi. Osiyo Taraqqiyot Banki.
2. Акмаева Р.И., Епифанова Н.Ш. 2008. Методы эффективного управления на промышленных предприятиях. Экономика и менеджмент предприятия
3. Захватова М.О. 2019. Управление экономическим потенциалом предприятия в целях повышения эффективности его использования. Научное исследование <https://cyberleninka.ru/article/n/upravlenie-ekonomiceskim-potentsialom-predpriatiya-v-tselyah-povysheniya-effektivnosti-ego-ispolzovaniya>
4. Логинов Антон Аркадьевич. 2014. Механизм управления устойчивым развитием предприятия промышленности на основе оценки его потенциала (на примере предприятий химического комплекса РФ). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук.
5. OECD (2020). O'zbekistonda innovatsiya va modernizatsiya. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti.
6. UNCTAD (2023). O'zbekiston: Investitsiya siyosati bo'yicha tahlil. BMTning Savdo va Taraqqiyot Konferensiysi.
7. UNIDO (2020). O'zbekistonda sanoat rivoji bo'yicha hamkorlik. BMTning Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti.
8. Jahon banki (2021). O'zbekiston iqtisodiy tahlili: Iqtisodiy transformatsiya uchun strukturaviy islohotlar.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 13-iyun

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.  
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 13-iyun

**ISBN 978-9910-09-184-1**

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.